

Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich
Xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish YUNESKO"
kafedrası doktoranti
abdullayevabdurasul155@gmail.com.

ABBOSIYLAR SULOLASI DAVRIDAGI IJTIMOY-MADANIY MUHITNING TEOLOGIK TAFAKKUR TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abbosiylar sulolasi davrida ilmu-fan va madaniyatning rivojlanishi, Xalifa al-Mansur davrida astronomiya, matematika, falsafa, tabobat, tarix, adabiyotga oid bir qancha kitoblar turli tillardan arab tiliga tarjima qilinishi, "Mihna" siyosati, ya'ni Qur'oni karimning maxluq yoki maxluq emasligi haqidagi bahslar, "Bayt al-hikma"ning yaratilishiga asos bo'lgan saroy kutubxonasi paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada Abbosiylar sulolasi davridagi rivojlangan ijtimoiy-madaniy muhit va teologik tafakkur taraqqiyotiga olim va tadqiqotchilarni fikrlari ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Abbosiylar sulolasi, "Mihna" siyosati, Harun ar-Rashid, "Bayt al-hikma", teologiya va gnoseologiya.

ВЛИЯНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ ПЕРИОДА ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИИ АББАСИДОВ НА РАЗВИТИЕ ТЕОЛОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ

Аннотация. В этой статье представлена информация о развитии науки и культуры во времена династии Аббасидов, политике "Михна," то есть спорах о том, является ли Коран творением или нет, о переводе нескольких книг по астрономии, математике, философии, медицине, истории и литературе с разных языков на арабский во времена халифа аль-Мансура, и о появлении дворцовой библиотеки, которая стала основой для создания "Байт аль-хикма." В статье также изложены взгляды ученых и исследователей на развивающуюся социокультурную среду и развитие теологической мысли в период династии Аббасидов.

Ключевые слова: Династия Аббасидов, политика "Михна," Харун ар-Рашид, "Байт аль-хикма" теология и гносеология.

THE IMPACT OF THE SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT DURING THE ABBASID DYNASTY ON THE DEVELOPMENT OF THEOLOGICAL THOUGHT

Annotation. This article provides information about the development of science and culture during the Abbasid dynasty, the "Mihna" policy, that is, debates about whether the Holy Quran was created or not, the translation of several books on astronomy, mathematics, philosophy, medicine, history, and literature from various languages into Arabic during the reign of Caliph al-Mansur, and the emergence of the palace library that became the basis for the creation of "Bayt al-hikma." The article also presents the views of scholars and researchers on the developed socio-cultural environment and the development of theological thought during the Abbasid dynasty.

Keywords: The Abbasid dynasty, "Mihna" politics, Harun al-Rashid, "Bayt al-hikma," theology and epistemology.

Islom tafakkuri tarixidagi eng ko'pqirrali va ilmiy nuqtayi nazardan bahsga boy mavzulardan biri Abbosiylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishidir. Ayrim mualliflar ushbu davrni faqat diniy bag'rikenglik va ilm-fanning gullab-yashnashi bilan

bog'lashga urinadi. Biroq tarixiy voqelik ko'rsatadiki, bu davrning intellektual hayoti davlat siyosati, mazhabi manfaatlar va madaniy sintezlar ta'sirida shakllangan murakkab jarayondir.

Ikki yuz yil davomida Abbosiylar xalifaligida yuksalish yuz berdi. Abbosiylar xalifaligi ayniqsa, VIII–IX asrlarda kuchli edi. Bu vaqtda – Bag'dodni barpo etgan Mansur (754–755yy.), Ma'mun (813– 833yy.) kabi qudratli xalifalar idora qildi. Abbosiylarning "oltin davri" Xalifa Mu'tazid (892 – 902yy.) davriga to'g'ri keladi.

Ipak yo'li Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan savdo yo'llari tarmog'i edi. Ushbu yo'nalishlarning aksariyati yaqin Sharq orqali o'tgan. Bu savdo yo'li musulmonlar qo'lida bo'lgan edi. Biroq, Umaviylar xalifaligi davrida barqarorlikning yo'qligi bunday muhim savdo yo'lidan to'liq foydalanishga imkon bermadi. Abbosiylar Ipak yo'lining markazida Bag'dod shahrini qurish orqali o'zgartirdilar. Uning markaziy pozitsiyasi xalifalikka Xitoy, Frank yerlari, Vizantiya imperiyasi, Hindiston va Efiopiyadan savdogarlarni jalb qilish imkonini berdi. Savdoning bu katta oqimi katta pul tushumlarini olib keldi. Bu esa, kuchli muntazam armiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

IX-X asrlarda Bog'dod shahri Osiyoda, qolaversa butun dunyodagi eng yirik madaniy-siyosiy markazga aylandi. X-XIII asrlar davomida Bag'dod Abbosiylar poytaxti bo'lib turdi. Xalifalik qulaganidan so'ng, uning poytaxt maqomi yo'qolgan bo'lsa-da, madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini yo'qotmadi. Abbosiylarning poytaxti – Bog'dod doira shaklida bo'lib, uning atrofi ikki qator devor bilan o'ralgan. Bu shahar zodagonlar shahri, xalifaning qarorgohi va uning ma'muriy poytaxti, hunarmandchilik rivojlangan tijorat shahri bo'lish bilan birga juda katta savdo markazi ham edi.

Muhammad Zamanning (Boston universiteti) ta'kidlashicha: "Abbosiylar xalifalari va ulamolar o'rtasidagi munosabatlar faqat hamkorlik emas, balki siyosiy manfaatlarga asoslangan tanlovli patronaj shaklida namoyon bo'lgan. Bu jarayon so'ngi natijada sunniy elitaning shakllanishiga olib keldi". Doktor Zamanning bu fikri juda muhim, chunki, xalifalar mazhabi masalalarda neytral emas, balki faol siyosiy agent sifatida qatnashgan. Bu holat, tabiiyki, teologik qarashlarning siyosiy konyunktura asosida shakllanishiga sabab bo'ldi. Masalan, ma'ruza shaklida boshlangan "Mihna" siyosati, ya'ni Qur'onning maxluq yoki maxluq emasligi haqidagi bahslar, keyinchalik, ilm-fanga, e'tiqodga nisbatan davlat pozitsiyasining ta'sirini yaqqol namoyon qiladi.

Hayrettin Yujesoy (Sent-Luisdagi Vashington universiteti huquq fakultetining dinshunoslik kafedrasi professori) esa shunday yozadi: "Imperiyaviy siyosat ichida mashhurlikka erishgan messiyalik qarashlar al-Ma'mun davrida diniy islohotlar uchun siyosiy vositaga aylantirildi. Bu qarashlar ijtimoiy mobilizatsiya vositasi sifatida xizmat qildi". Bunday yondashuv teologiyaning siyosiy vosita sifatida faollashtirilganini ko'rsatadi. Demak, teologik qarashlar shundaygina shakllanmagan, balki davlat tomonidan maqsadli ravishda qurilgan va tarqatilgan.

Abbosiylar xalifalari ichida eng dong taratgan Horun ar-Rashid (786-809) taxtga o'tirganidan so'ng, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Horun ar-Rashid davrida "Bayt al-hikma" turli adabiyotlar saqlanadigan maskandan tarjima va tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylandi. U yerga kelgan taniqli ulamolar, tadqiqotchilar nafaqat turli mavzulardagi kitoblar bilan tanishish, balki ularni mutolaa qilish imkoniyatiga ham ega edilar. Bu davrda tarjima ishlariga bo'lgan ahamiyat bag'oyat ko'paydi.

Al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Ma'mun kabi Abbosiylar xalifalar qadimiy qo'lyozma asarlar va yirik olimlarni o'z saroylariga jalb etishga alohida e'tibor qaratish bilan bir qatorda, bu borada mislsiz jonbozlik ham ko'rsatdilar. Natijada Bag'dod tez orada butun xalifalikda ilmiy faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan qulay shaharga aylandi. Bu esa o'z navbatida, olimlarning o'sha yerda ijod qilish ishtiyoqini oshirib yubordi.

Saroyda qo'lyozma asarlarni saqlash abbosiylar xalifalardan al-Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihati ham tubdan o'zgardi. Al-Mansur nodir qo'lyozma asarlarni to'plashdan tashqari, o'zga yurtlardagi olimlarni ham o'z saroyiga jalb eta boshladi. Uning saroyida Erondagi Gundishapur maktabidan taklif etilgan turli diniy e'tiqodda bo'lgan ko'pgina olimlar, tabiblar, kimyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilgan. Xalifa al-Mansur davrida astronomiya, matematika, falsafa, tabobat, tarix, adabiyotga oid bir qancha

62 kitoblar tarjima qilingan va mazkur noyob qo'lyozma asarlarni saqlash uchun o'z saroyidan maxsus joy ajratgan. Shu tariqa "Bayt al-hikma"ning yaratilishiga asos bo'lgan saroy kutubxonasi paydo bo'ldi.

Ammo bu kutubxonaning vazifasi kitobxonlarni zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlash emas, balki to'plangan nodir qo'lyozma asarlar, turli mamlakatlardan keltirilib, arab tiliga o'girilgan kitoblarni saqlashdan iborat bo'lgan. Al-Mansur davrida bu maskan hali "Bayt al-hikma" deb nomlanmagan edi.

827 yilda Al-Ma'mun Bag'dodda mashhur "donolik uyi" (Bayt al-Hikma)ga asos solgan, u yerda tajribali tarjimonlarning katta tarkibi matematika, astronomiya, tibbiyot, astrologiya va kimyoga oid yunon asarlarini arab tiliga tarjima qilish ustida ishlagan. Shuningdek, falsafa, mantiq va ilohiyot kabi asarlar, diniy masalalarga juda qiziqqan xalifaning alohida e'tiborida bo'lgan.

Bag'dodga qo'shilgandan keyin shia tarafdorlari siyosati tugagan bo'lsa-da, al-Ma'mun ahli-sunnaga qaytmadi. Buning o'rniga u mutaziliylar ta'limotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlay boshladi, chunki u ularning ta'limotini islomning barcha oqimlari uchun eng maqbul deb hisobladi. Mu'taziliylar tasavvufni va Xudoni intuitiv ravishda bilish imkoniyatini rad yetishdi. Aksincha, ular ilohiyotga falsafiy va ilmiy asos berishga harakat qilishdi. Bu g'oyalar 827 yilda "Qur'onni yaratish" haqidagi mutaziliy dogmasini rasman qabul qilgan oqilona fikrlaydigan al-Ma'munga yaqin edi.

O'rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag'dodda bunyod etilgan "Bayt al-hikma" so'zsiz, yirik ilmiy markaz sanaladi. "Bayt al-hikma" o'zbek tilida "Hikmatlar uyi" degan mazmunni anglatadi. Bu iboradagi "hikmatlar" ortida o'sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniladi. Binobarin, "Bayt al-hikma" birinchi navbatda, ushbu sanab o'tilgan fanlar qolaversa, boshqa fan yo'nalishlarida ham ish olib borilgan ilm va tarjimalar dargohi bo'lgan. Mohiyatan avvaliga kutubxona sifatida bunyod bo'lgan "Bayt al-hikma" ko'p vaqt o'tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa, bu markaz tevaragida o'z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to'planib, ijod qildilar. Ta'kidlash joizki, ularning o'zagini Movarounnahr va Xuroson olimlari tashkil etdi. Ayni paytda bu maskanda bir tomondan, yunon, hind va fors tillaridagi ko'plab nodir asarlarning jamlangani, ikkinchi tomondan, jamlangan kitoblarning eng noyoblari tanlab olinib, arab tiliga o'girilgani hamda muomalaga kiritilishi, uchinchi tarafdin esa, muhim asarlarni yaratgan taniqli olimlarning "Bayt al-hikma"da to'plangani, uni o'rta asrlarning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishi va ilmiy adabiyotlarda "Bag'dod ilmiy maktabi" va "Bag'dod akademiyasi" degan nomlar bilan tanilishiga asos bo'ldi.

Horun ar-Rashidning kichik o'g'li al-Amin (809-813) davrida "Bayt al-hikma"ning faoliyati birmuncha susaygan bo'lsa, uning katta o'g'li al-Ma'mun davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Al-Ma'mun "Bayt al-Hikma"ga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada uning davrida (813-833) "Bayt al-Hikma"dagi ilmiy muhit misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, u yerda yunon, fors va hind tillaridagi muhim kitoblarni arab tiliga o'girish, sharhlash bilan bir qatorda, mustaqil ilmiy faoliyat ham olib borilib, yangi asarlar yozildi. Al-Ma'mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o'zi ham ular bilan muntazam shug'ullangan. Shuningdek, u tarjimonlar va olimlarga har bir yozgan yoxud tarjima qilgan kitoblari uchun katta mukofotlar tayinlagan. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan "Bayt al-Hikma"ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Ularning ba'zilar esa, harbiy yurishlardagi o'lja sifatida Bag'dodga olib kelingan.

Al-Ma'munning qo'llab-quvvatlashi bilan eng sara asarlar tanlab olinib, arab tiliga o'girildi. Umuman, bu davrda tarjimonlik ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilib, u yaxshi tashkil etilgan doimiy faoliyatga aylandi.

A. G'ufur va hammualliflar Abbosiylar davrida bilim manbalariga nisbatan epistemologik yondashuvlar haqida shunday yozishadi: "Horun ar-Rashid davrida bilim manbalari uch yo'nalishda tartiblandi: aqliy bilim, hissiy bilim va kashf orqali bilim. Bu tasnif Qur'on, hadis va sufiy tafakkurga integratsiya qilingan". Ushbu gnoseologik klassifikatsiya murakkab va ko'pqirrali bo'lishiga qaramay, uning shakllanishi diniy ta'limotlar, siyosiy stabillik va iqtisodiy

taraqqiyotga bog'liq bo'lgan. Ilmiy erkinlikning to'liq ta'minlanmagani esa mustaqil g'oyalar rivojini cheklagan.

Ilshat Nasirov shunday tanqidiy fikr bildiradi: "Abbosiylar Yunon va Fors ilmlarini qabul qilishda tanlovli yondashgan, faqat ularning shariatga muvofiq tushadigan qismlarini o'zlashtirgan. Bu jarayonda antik ilmiy merosning chuqur mohiyati emas, balki undan siyosiy-ideologik foydasiga ko'ra qabul qilingan". Bu fikr Abbosiylar ilmiy merosni real tarixi jarayonlar, shariat va davlat manfaatiga moslashtirib qabul qilganini ko'rsatadi. Abbosiylar davlatida tarixchi, "Arab Gerodoti" Abu-Hasan al-Ma'sudiy, matematik, "tangens", "kotangens", "sinus" teoremasi, trigonometrik tushunchalari muallifi Abu-Vafo al-Buzjoniy, astronomlar Ahmad ibn Yusuf va Muhammad ibn Muso ibn Shakir, fizik Abu Ali Ibn Al-Haysam va boshqa buyuk olimlar ishlagan. Bu olimlar Abbosiylar xalifaligida musulmon dini talablariga muvofiq aholi ta'limiga alohida ahamiyat qaratishgan.

Abbosiylar davrida tez taraqqiy topgan fanlar qatorida astronomiya (falakiyot)ni kiritish maqsadga muvofiq. Xalifa al-Ma'mun davrida "Bayt al-hikma" qoshida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona ham bunyod etilgan. Birinchisi 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mintaqasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Qasiyun tog'ida 831-yilda qad ko'targan. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini al-Ma'mun o'z saroyiga to'plagan Movarounnahr va Xurosondan kelgan astronomlar, jumladan, Muhammad (Muso) al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos al-Javhariy va boshqalar olib borganlar. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag'dodning ash-Shammosiya mintaqasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo'lgan. Rasadxona faoliyati haqida u "Bayt al-hikma"ning mudiri Muhammad al-Xorazmiy (783-850)ga hisobot berib turgan. Yahyo 831-yilda vafot etganidan so'ng al-Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Xurosonlik olim Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy esa Damashq yaqinidagi Qasiyun tog'idagi rasadxonaning tashkilotchisi, rahbari va u yerda olib borilgan tajribalarning qatnashchisi bo'lgan. Ahmad al-Farg'oniy (taxm. 797-865) ham Bag'dod ilmiy markazidagi allomalarning eng mashhurlaridan biri bo'lgan. Hozirgi kunda al-Farg'oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Uning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi.

Shuningdek, Arab-musulmon dunyosida matematika taraqqiy topishiga greklar va hindlarning ta'siri bo'lib, hindlardan "nol" qo'llanadigan o'nlik sanoq tizimi o'zlashtirilgan edi. Arab tilida arifmetika to'g'risida yozilgan birinchi asar IX asrda Bag'dodda ishlagan o'rta osiyolik buyuk olim Muhammad al-Xorazmiyning "Kitab al-jabr va-l-muqobala" risolasi bo'ldi. Shuningdek, Muamer (Mustafo) Halilovich "Ixvon as-Safa" jamoasining faoliyati orqali Abbosiylar davridagi gnoseologiya va ijtimoiy fikr rivojiga ta'sirini tahlil qildi. "Ixvon as-Safa g'oyalari davlatchi kalom maktablariga qarshi fikr erkinligini saqlash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ular bilimni ensiklopedik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi vosita sifatida ko'rishgan" deb yozadi. Bu fikr diniy nazariyalar bilan ziddiyatli ravishda shakllangan mustaqil ilm maktablarining mavjudligini tasdiqlaydi.

Abbosiylar sulolasi davridagi ijtimoiy-madaniy hayot islom fikriy tarixi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning teologik va gnoseologik qarashlar rivojiga ta'siri keng qamrovli, biroq murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lgan. Ayrim mualliflar bu davrni "ilm-fanning tilsiz gullashi" sifatida ideallashtirishga urinadi, ammo tanqidiy tahlil bu qarashlarning bir qator metodologik muammolarga ega ekanini ko'rsatadi.

Caiyan Wang, (Malaya Universiteyi, Kuala Lumpur), shunday deb ta'kidlaydi: "Baytul-hikma singari akademik markazlar diniy bag'rikenglik, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy homiylikka asoslangan holda shakllandi va Abbosiylar davrida ilm-fan taraqqiyotini ta'minladi". Ushbu yondashuv institusional taraqqiyotga asoslangan bo'lsa-da, unda ilm va din o'rtasidagi murakkab munosabatlar tanqidiy ko'rib chiqilmagan. "Baytul-hikma" davlat tomonidan tashkil etilgan va

64 boshqarilgan bo'lib, u yerdagi ilmning rivoji ko'pincha davlat ideologiyasi va xalifalik siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Muhammad Manazir Ahsanning ijtimoiy hayotga oid tadqiqotida: "Abbosiylar davridagi ijtimoiy madaniyat va zehniy hayot jadallik bilan rivojlangan, ammo bu madaniy o'sishning o'zagida elita tabaqaning hukmronligi turgan" deyiladi. Bu fikr jamiyatdagi bilim tarqalishi va nazariy tushunchalarning omma tomonidan qabul qilinishi masalasini murakkablashtiradi. Teologiya va falsafaning rivoji asosan saroy vakillari va homiylikka ega ulamolar doirasida yuz bergan, bu esa bilimning sotsial tabaqalashuvi va senzura holatlarini keltirib chiqargan.

Bashirning tahlilida ta'kidlanishicha: "Abbosiylar zehniy muhiti faqat islomiy ulamolar emas, balki she'riyat va adabiy elita orqali ham shakllantirilgan bo'lib, bu soha fikriy yetuklikning alternativ manbai bo'lgan". Ammo muallif bu adabiy muhitning gnoseologik yo'nalishga ta'sirini umumlashtirgan holda ko'rsatadi. Aslida, adabiyot orqali ijtimoiy tanqid va falsafiy fikr bayon qilingan bo'lsa-da, ularning diniy nazariyalarga ta'siri cheklangan va ko'pincha hukmron mazhabiy maqomlar tomonidan chetga surilgan.

Shunday qilib, Abbosiylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot teologik va gnoseologik qarashlarga nisbatan ham yordamchi, ham cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Davlat siyosati, ilmiy muassasalar, mazhabiy raqobat va ijtimoiy tabaqalashuv ilmning rivojlanishini belgilovchi muhim dinamikalar sifatida tahlil qilinishi shart. Ilm-fanning "gullab-yashnashi" sifatida bir yoqlama ideallashtirish uning tanqidiy xususiyatlarini yo'qqa chiqaradi.

Abbosiylar sulolasi davrida ijtimoiy-madaniy hayotning teologik va gnoseologik qarashlar rivojiga ta'siri murakkab, ko'p qirrali va dinamik jarayon bo'lib, uni faqat bir tomonlama "ilm-fan gullab-yashnashi" sifatida tavsiflash metodologik kamchiliklarga olib keladi (Falastin - Islom huquqi va Islom tafakkuri tarixi bo'yicha mutaxassis. Kolumbiya universiteti professori) shunday ta'kidlaydi: "Abbosiylar sulolasining ilk davrlarida, ayniqsa, al-Ma'mun hukmronligida davlat diniy masalalarda faol pozitsiya egalladi va Qur'onning maxluq ekanligini tasdiqlashga urinish orqali teologik qarashlarni markazlashtirishga intiladi". Bu fikr davlatning faqat ilmni emas, balki dinning ta'limotini ham nazorat qilishga intilishini ko'rsatadi. Natijada, teologik fikrlar faqat aqliy asosda emas, balki siyosiy bosim va talablarga ko'ra shakllangan.

Littmann Enno, esa ijtimoiy-madaniy hayotning gnoseologik qarashlarga ta'siri haqida shunday yozadi: "Abbosiylar madaniy muhitida bilim manbalari turlicha talqin qilindi, sufiylar kashfni, mutazilalar aqlni, sunniy ulamolar esa naqlni ustun qo'ydi. Bu xilma-xillik bilimga bo'lgan yondashuvlardagi miqyos va ixtilofni ko'rsatadi. Ammo muallif bu yo'nalishlar o'rtasidagi kuchli raqobat, bahs va ba'zan siyosiy zo'ravonliklar orqali shakllangan dinamik muhitni yetarlicha chuqur tahlil qilmaydi.

Abdulloh Ahmad Methqal Al-Shyab esa madaniy muhitda ijtimoiy tabaqalashuvning ilmiy va teologik qarashlar rivojiga ta'sirini ta'kidlab: "Abbosiylar jamiyatida bilim va ilm asosan saroy va ilm ahli elitasi orasida konsentrallashgan bo'lib, ommaviy bilim tarqalishi cheklangan edi" deb yozadi. Bu nuqtai nazar bilim va ilmning rivoji universal emas, balki ijtimoiy tabaqalanish va manfaatlar kontekstida yuz berganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Abbosiylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot teologiya va gnoseologiyaning rivojiga keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ilm va din o'rtasidagi muvozanat faqat g'oyaviy emas, balki amaliyotda qattiq nazorat va taqsimot mexanizmi orqali ta'minlangan. Shuning uchun Abbosiylar davridagi fikriy rivojlanishni faqat ijobiy va ideallashtirilgan tarzda tasvirlash tarixiy va ilmshunoslik nuqtai nazaridan yetarli emas.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1 Xalifalikda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli darajada bo'lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida yaqin aloqalarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bergan. Bu omil o'z navbatida o'zaro madaniyat almashinuviga ham, ilm-fanning rivojiga ehtiyoj shart-sharoit yaratgan.

2 Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim badaviy elatlardan iborat bo'lgan xalq edi. Tabiiyki, arablar ham o'zlari zabt etgan mamlakat xalqlarining ilg'or madaniyatini zudlikda o'zlashtirdilar. Ushbu madaniyat xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat edi.

3 Arab xalifalari olimlar, shoirlar, san'at vakillarini o'z homiyliklariga olganlar. Xalifalarning bu xatti-harakatini homiylik deb emas, balki butun jamiyat bilan birgalikda haq yo'ldan borish deb ham tushunish mumkin. Xalifalarning ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilishi shubhasiz, arab-musulmon madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etishini ta'minlagan.

4 Bag'dod xalifalari saroyining ma'lum qismini egallagan "Bayt al-hikma"ning asosi – xalifa al-Mansur davrida yaratildi, Horun ar-Rashidning homiyligi ostida, u ancha kengaytirildi, rivojlantirildi, o'zining tarixiy "Bayt al-Hikma" nomi bilan yuritila boshladi. Al-Ma'mun esa, u yerda mashhur allomalarni to'plab, ularga har taraflama ko'mak berdi, uning eng yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tarilishini va o'sha davr uchun o'ziga xos ilmiy maktabga aylanishini ta'minladi.

Arab-musulmon madaniyati jahon xalqlari madaniyatiga ta'siri shunchalik beqiyoski, Abbosiylar sulolasi tarkibiga kirgan Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan tashqari, hatto Yevropa davlatlari ham ushbu ta'sirdan chetda qolmadi. Madaniyat umuminsoniy hodisadir. Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millatning o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi.

Ko'p yillar davomida o'rta asrlarga oid adabiyotlarda VIII-XII asrlarda shakllanib taraqqiy etgan madaniyatning yaratuvchilari faqatgina arablar deb noto'g'ri talqin etib kelindi. Aslida esa bu madaniyat Arab xalifaligi tarkibiga kirgan barcha mamlakat xalqlari yaratgan umumiy madaniyat ekanligini, unda buyuk ajdodlarimizning ham hissasi buyuk ekanligini e'tirof etish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abbosiylar davridagi ilm-fani, madaniyatning ajoyib xususiyati va ahamiyatli tomoni shundaki, hamma sohalarida ilmiy ijod va izlanishga katta e'tibor qaratildi. Mafkuraviy, aqidaviy masalalarga chek qo'yilib, inson omili yuqori ko'tarildi. Diniylik emas, balki dunyoviylik ta'minlandi. U davr olimlari islom aqidalariga mahkam bog'lanib qolmagan, hatto rasmiy islom dogmalariga rioya qilmay, erkin fikrlash darajasiga ko'tarilganlar. Ular inson yaratgan zotning eng oliy mahsuli ekanini tasdiqlaydilar. Bugungi kunda musulmon dunyosi yaratgan madaniy merosning nafaqat Sharq, balki G'arb mamlakatlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan roli, shuningdek, abbosiylar davlatchiligining insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini xolisona yoritish, uni to'laqonli tadqiq etish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bugun arab-musulmon madaniyatini o'rganishning dolzarbligi shundaki, musulmon Sharqi, va umuman, ko'plab Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi madaniy-ma'naviy meros va madaniy qadriyatlarning hozirgi jamiyatda, uning ma'naviyati va mafkurasida tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Abbosiylar sulolasi davrida ijtimoiy-madaniy hayot teologik va gnoseologik qarashlarning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ilm va din munosabatlari doimo ilm va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu esa o'z o'rnida tortishuvlar, raqobat va siyosiy zaruratlar ifodasida namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Насыров И, Античное наследие в системе ценностных ориентиров аббасидских халифов в VIII–IX вв. // Философская антропология. Античное наследие в системе ценностных ориентиров Аббасидских халифов в в VIII–IX вв. 2019. Т. 5, № 2. С. 62–88 б.
2. Zaman, M. (1997). Religion and Politics Under the Early 'Abbāsids. – Б. 106.
3. Mustafu Muxammad Xusayn Zaxabiy "Attafsir val mufasssirun". "Dorul xadis" Qoxira. 2012. 1 jild. – 568 b.
4. Al-Imom Faxriddin Roziy. At-Tafsir al-Kabir, Mafotixul g'oyb. – Beyrut. "Dorul kutub al- ilmiya", 2005. – 606 b. Wael B. Hallaq . The Formation of Islamic Law. – : Routledge, 28 .01. 2004 г. ISBN: 978-0860787143 – 76-6

5. Claude Gilliot, Education, Learning, early islam., Education and Learning in the Early Islamic World. Littmann E, The Transmission of Knowledge in Early Islam. – Princeton: Princeton University Press, 2000. – 58-6.
6. Abdallah Ahmad Methqal Al-Shyab. The Abbasid caliphs: their role in the development of islamic politics and culture. SDGsReview | Florida, USA | VOL. 5| e04240| pag: 01-15| 2025.
7. Mohamed, R. I. M. (1970). El desarrollo de la epistemología en el "kalām" islámico medieval. Anales de la Universidad Complutense. Мадрид – Т. 29. – Б. 90.
8. Ahsan, M. (1973). Social Life under the Abbasids, 170–289/786–902. – Б. 44.
9. Bashir, A.-R. M. (2020). Muslim Intellectual Life in Eighth Century Baghdad. Islamic Sciences. – Б. 12.
10. Halilović M, Putopisi u islamu i njihov doprinos razvoju socijalne misli 2020. b. 52.
11. Wang, C. (2024). The House of Wisdom: Intellectual Achievements of the Abbasid Caliphate. International Journal of Education and Humanities. – Б. 3.
12. Yucesoy, H. Messianic Beliefs and Imperial Politics in Medieval Islam: The ‘Abbāsīd Caliphate in the Early Ninth Century. Studies in Comparative Religion. Columbia: University of South Carolina Press, 2009. 212 pp – Б. 214.
13. Atayev M. Sharqda dastlabki ilmiy markazlarning shakllanishi va rivojlanishi. <https://www.bukhari.uz/?p=36017&lang=oz>
14. Ghofur A., Nasution K., Efendi M. (2021). The Epistemology of Medieval Islamic Education. – Б. 74.